


Bugun tug'ilgan kun! Akademik Baxtiyor Nazarov 75 yoshda!

Filologiya fanlari doktori, professor, O'zR FA akademigi Baxtiyor Nazarov 1945-yil 17-sentyabrda Toshkent shahrida tavallud topgan.



Baxtiyor Nazarov o'zbek adabiy tanqidchiligi matabining yetakchi namoyandasi, o'zbek adabiy tanqidchiligining ilmiy asoslarini, ayniqsa, istiqlol yillarda yanada rivojlantirib, yuqori bosqichga ko'targan nazariyotchi-olim.

Uning XX asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayonni adabiy tanqidchilik nuqtai nazaridan tahlil va tadqiq etgan ilmiy ishlari bugungi o'zbek adabiyotining badiiy saviyasini baholashda o'ziga xos o'rinn tutadi. Uning o'zbek jadid adabiyotining o'rganilmagan sahifalarini tadqiq etishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlari ushbu davr adabiyotini milliy, madaniy va adabiy qadriyatlarimizning tiklanishi nuqtai nazaridan yangicha o'rganishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. XX asr o'zbek adabiyotining yetakchi namoyandalaridan Oybek, G'afur G'ulom, Zulfiya, A.Oripov, Muhammad Yusuf singari o'z davri adabiy jarayonining asosiy rivojlanish tamoyillarini aks ettirgan yozuvchi-shoirlar ijodlari tadqiqiga yo'naltirilgan fundamental ilmiy ishlari o'zbek adabiyotining XX asr hamda istiqlol davridagi taraqqiyot tendentsiyalarini belgilashga xizmat qilishi bilan alohida ajralib turadi.

U 1967-1973-yillarda Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti katta laboranti, ilmiy xodimi bo'lib ishlagan. 1973-1979-yillarda Fanlar akademiyasi Prezidiumi ijtimoiy-gumanitar fanlari bo'llimi ilmiy kotibi, bosh ilmiy kotib o'rinosari, 1979-1986-yillarda Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti ilmiy kotibi, katta ilmiy xodimi, 1986-1990-yillarda institut direktori lavozimlarida ishlagan.

1990-1992-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat maslahatchisi bo'lgan.

1992-1994-yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri birinchi o'rinosari, 1994-1998-yillarda Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti bosh ilmiy xodimi, 1999-2001 yillarda Fanlar akademiyasi Prezidiumi Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishi bo'yicha ilmiy muvofiqlashtiruvchi kengash raisi va Fanlar akademiyasi prezidenti maslahatchisi bo'lib ishlagan.

B.Nazarovning 20 ga yaqin monografiya va risolalarida XX asr o'zbek adabiyoti va tanqidchiligining asosiy taraqqiyot tamoyillari tadqiq etilgan. Oliy va o'rta ta'lif tizimi uchun hammulliflikda yaratilgan 10 ga yaqin o'quv qo'llanmalari va darsliklari adabiyotshunoslik sohasidagi bugungi ta'lif tizimining yetakchi namunalari hisoblanadi. Ayniqsa, uning bevosita rahbarligida 2012-yilda kirill va 2013-yilda lotin yozuvlarida chop etilgan "XX asr o'zbek adabiy tanqidchiligi" darsligi oliy ta'lif tizimi uchun ushbu sohada yaratilgan ilk darslik ekanligi bilan e'tiborga sazovordir.

Kasbiy tayyorgarligi, ilmiy-tadqiqot ishlaridagi bevosita ishtiroki va rahbarligi, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni qo'llay olishi zamon talablari darajasida. Mustaqillik davrida e'lon qilgan 200 dan ortiq maqolalarida e'tibor, asosan, yangi davr qo'ygan vazifalarga qaratilgan.

B.Nazarov "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" doirasida O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetlarida o'rindoshlik asosida "XX asr o'zbek adabiyoti", "Adabiyot nazariyasi" va "Adabiy tanqidchilik" fanlaridan ma'ruzalar o'qib, adabiyotshunoslik sohasidagi yangi avlodni shakllantirish ishiga o'zining munosib hissasini qo'shgan.

O'zR FA Til va adabiyot institutida 50 yildan ortiqroq vaqt mobaynida muntazam ravishda faoliyat ko'rsatgan adabiyotshunoslik sohasidagi doktorlik dissertatsiyalari himoyasiga ixtisoslashtirilgan ilmiy kengashning doimiy a'zosi, ko'p yillar mobaynida ushbu kengash raisi va o'rribbosari sifatida yuqori malakali adabiyotshunos mutaxassislarni yetishtirish borasida samarali faoliyat ko'rsatgan. Ko'p yillar mobaynida O'zR FA huzuridagi adabiyotshunoslik borasidagi Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi raisi sifatida adabiyotshunoslik sohalaridagi ilmiy ishlarni koordinatsiya qilish (muvofiglashtirish) ishlariga rahbarlik qilgan.

O'zR FA Til va adabiyot institutida 1958 yildan buyon chop etilayotgan "O'zbek tili va adabiyoti" ilmiy jurnalining tahririyat a'zosi, bosh muharriri, bosh muharrir o'rribbosari vazifalarida ko'p yillar mobaynida mas'uliyat bilan faoliyat ko'rsatgan.

1996-2010-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzuridagi adabiyotshunoslik va adabiy tanqid kengashining raisi sifatida o'zbek adabiyotining istiqlol davridagi taraqqiyot tamoyillarini belgilash borasida samarali faoliyat ko'rsatgan.

B.Nazarovning bevosita ilmiy rahbarligi va ilmiy maslahatchiligidagi 10 ga yaqin fan doktori va 20 dan ortiq fan nomzodlari tayyorlangan. Uning tashabbuskorligi va tashkilotchiligi O'zR Fanlar akademiyasi hamda Yozuvchilar uyushmasidagi jamoat ishlari, o'nlab monografiyalarga mas'ul muharrirlik, 15 fan doktoriga opponentlik, turli ilmiy-nazariy anjumanlarni tashkil etib, ularda o'zi faol ishtirok etishida namoyon bo'ladi.

Iste'dodli olim tashkilotchilik va yuksak insoniy fazilatlari bilan respublika va xorijiy olimlar hurmatini qozongan.

Akademik Baxtiyor Nazarovni bugungi tavallud ayyomi bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nomidan muborakbod etamiz! Ustozga farzandlari, yaqinlari va shogirdlari ardog'ida sihat-salomatlilikda uzoq umr ko'rishlarini hamda o'zbek ilm-fani rivojida o'z hissalarini qo'shishda charchamasliklarini tilab qolamiz!